

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI ORQALI TALABALARDA TARIXGA
DAXLDORLIK TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Azimov Muhammadi Azim o‘g‘li
SDVMCHBU TF o‘qituvchisi
Fayzullayeva Sarvinoz Asqarali qizi
SDVMCHBU TF 1-bosqich talabasi

Abstract. This article discusses the development of a sense of historical awareness among students through the mass media, the enlightening ideas of our Jadid ancestors. Also, the scientific research work thoroughly analyzes the publishing work carried out by the Jadids and the problems of their development.

Keywords - media, publication, video, telegram, social network, radio, broadcasting, television show, history, music, past, future.

Аннотация: В данной статье научно освещены вопросы развития у студентов чувства сопричастности к истории через средства массовой информации, просветительские идеи наших предков. Также в научно-исследовательской работе подробно анализировались издательские работы, осуществляемые в новейшее время, и проблемы их развития.

Ключевые слова - СМИ, публикация, видео, телеграмма, социальная сеть, радио, радиовещание, телевидение, история, современность, прошлое, будущее.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ommaviy axborot vositalari orqali talabalarda tarixga daxldorlik tuyg'usini rivojlantirish, jadid bobolarimizning ma'rifatparvar g'oyalari ilmiy yoritilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishida jadidlar tamonida olib borilgan noshirlik ishlari va ularni rivojlantirishining muammolari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar – OAV, nashr, video, telegram, ijtimoiy tarmoq, radio, eshittirish, teleko‘rsatuv, tarix, moziy, o‘tmish, kelajak.

Ommaviy axborot vositalari – nashrlar, radio va eshittirishlar, kinoxronik programmalar, va ommaviy axborot yetkazishning boshqa shakllaridan biri hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari deganda olimlar «keng ommaga mo‘ljallangan nashriy, audio, audiovizual va boshqa ma’lumot va materiallarni tushunadi». OAV axborot manbayi hamda axborotni qabul qilib oluvchidan iborat sistemani tashkil etadi. Axborot manbayi uni qabul qilib oluvchi bilan matbuot, radio va tetevideniye, kino, ovoz yozish (gramplastinka, magnitafon roliklari, kasetalar, yoki kompakt disk va axborot tashuvchi komyuter fayllari ishlab chiqarish va tarqatish) sistemalari orqali bog‘langan bo‘ladi. Ommaviy axborot vositalarining samaraliligi va ta’sirchanligi faqat uzatilayotgan axborotning o‘quvchi, tinglovchi, tomoshabinga

ta'sirining maqsadi va vazifalari bilan emas, balki ular mazmuni va shaklining kishilarning doimiy va kundalik ehtiyojlariga muvofiq kelishi bilan ham belgilanadi. G'oyaviy-siyosiy kurash, ijtimoiy gruppalar munosabatlarini mazmuni va shakliga, propagandaning ideologik, siyosiy va boshqa turlariga turlicha jiddiy ta'sir kursatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi senzuraga yo'l qo'ymaydi. Axborotni qidirish, olish, berish, ishlab chiqarish, va tarqatishning qonuniy shakli davlatga tegishli yoki qonun bilan maxsus qo'riqlanadigan sirlarni mumkin emasligi e'tirof etiladi. Shuningdek, OAVni jinoiy javobgarlikka tortiladigan maqsadlar yo'lida, masalan, hokimiyatni egallashga qaratilgan chaqiruvlar, konstitutsion tuzumni kuch ishlatish yo'li bilan o'zgartirish; milliy, sinfiy, ijtimoiy, diniy adovatni keltirib chiqaradigan materiallar: urushni propoganda qiluvchi pornografik, yovuzlik va bosqinchilikni targ'ib etuvchi programmalarni tarqatishi taqiqlangan.

Hamma vaqt tarixiy bilish turli tarixiy davrlar va ijtimoiy tuzilmalarning barqarorligini ta'minlashga, jamiyatning dolzarb ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilib kelgan[2]. Jurnalistik huquqini, shuningdek, shaxs yoki fuqarolarning ayrim toifalarini jinsi, yoshi, irqiy yoki milliy kelib chiqishi, tili va dinga munosabati, kasbi, yashash joyi, hamda siyosiy qarashlari bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarini kamsitish yo'lida ishlatish taqiqlanadi. Axborot huquqlari va erkinliklari axborot huquqining yuridik negizini tashkil etadi, ularin Kafolatlash esa ushbu yangi huquq sohasining asosiy maqsadidir. Jahon audiovizual va boshqa ma'lumot va materiallarni tushunadi». Ommaviy axborot vositalarining maqsadi muayyan jamiyatning ma'naviy boyliklarini qaror toptirish hamda kishilarning xulq-atvori va dunyoqarashiga ideologik, siyosiy, iqtisodiy yoki tashkiliy ta'sir o'tkazishdan iborat. Ommaviy kommunikatsiyaning kelib chiqishiga 20-asrning 1-yarmida katta hajmdagi og'zaki, obrazli va musiqaviy informatsiyalarni tez va g'oyatda ko'paytirib uzatishga imkon bergan texnik qurilmalarning yaratilishi moddiy zamin bo'ldi. Yuksak professional mutaxassis xodimlar xizmat qiladigan bu qurilmalarining komplekslari «ommaviy informasias va propaganda vositalari» yoki «Ommaviy axborot vositalari» deb atala boshladi.

Dunyodagi bo'lgan barcha didaktik tizimlarning eng yaxshi tomonlarini birlashtirib, yangi didaktik tizim asosida dars o'tishni oddiy o'qituvchi u yoqda tursin, tajribali pedagog olimlar ham uddasidan chiqishi qiyin bo'ladi[3]. Ma'lumki, tariximiz buyuk va uzoq o'tmishga ega. Bugungi kunga kelib, tariximizni tiklash, tariximizdan faxrlangan holda tariximizdan saboq olib, ma'rifatparvar jadidlarimiz ishlarini yosh iste'dodlarimiz ta'lim-tarbiyasiga namuna qilib olishimiz mumkin. Globallashayotgan davrda aynan bu ishni OAVlar yordamida amalga oshirish mumkin. Shu xususda qilingan sa'y-harakatlarga to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. 2022-yilda Samarqand shahrida Turkistondagi jadidchilik harakatining yetuk vakillaridan biri, ma'rifatparvar, tilshunos olim Sayid Rizo Alizoda tavalludining 135 yilligiga bag'ishlab 11-oktyabrda katta ilmiy anjuman o'tkazildi. 1937-yilda qatag'on qilingan ushbu shaxs ham o'z umri

va jonini Vatan uchun, uning hur, ozod bo'lishi, xalqning farovon, tinch yashashi uchun fido qilgan inson hisoblanadi. Uning 1920-yil "Hurriyat" gazetasida e'lon qilgan "Turkiston bizning Vatanimiz" maqolasidagi quyidagi fikrlar bugungi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi: "Shu yerning ob-havosidan bahramand bo'lib kamol topsang-u, uning sharafini himoya qilmasang, (ona diyoring) oyoqosti bo'lishi, qadrsizlanishiga yo'l qo'ysang, nobakor ajnabiy o'z vatani shon-shavkati uchun sening ota-bobolaring kindik qoni to'kilgan yeringni vahshiylarcha toptab, qoningni simirsa va uni axlatxonaga aylantirsa-yu, sen hissizlarcha qarab tursang yoki undan qochsang, o'zing uning g'oratlanishiga ko'maklashsang, unda sen bu Vatanning farzandi emassan". Aynan shu singari fikrlari uchun Sayid Rizo Alizoda sovet tuzumi tomonidan mahv etildi. Muzey tashkil topgandan buyon fondni boyitishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mohiyatidan olib qaraganda, daxldorlik hissini shakillantirish jarayonida aholining barcha qatlamlarini qamrab oluvchi o'quv modellarini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Vohalanki, ushbu ishlarning debochasi sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirishdan boshlanadi. Bu muammoning nazariy yechimlarini topish imkonini beradi[3].

Dastlabki yillarda fondda bor-yo'g'i 1000 dan ortiq material jamlangan bo'lsa, bugungi kunga kelib, eksponatlar soni 17146 donaga yetdi va bu ko'rsatkich yildan-yilga oshib bormoqda. Muzey fondi ilmiy xodimlar izlanishlari natijasida, qolaversa, qatag'on bo'lgan shaxslarning oilalaridan olingan ma'lumotlar, hujjatlar, foto, gazeta-jurnal, kitob va buyumlar bilan to'ldirilib, yangilab kelinmoqda. Muzey tomonidan qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, nomlarini oqlash, jadidlar merosini o'rganish borasida qilinayotgan ishlar turli ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, telekanallarda yoritilishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, 2019-yildan "O'zbekiston tarixi" telekanali bilan hamkorlikda muzey texnik bazasidan foydalangan holda qatag'on qurbonlari bo'lgan 200 dan ziyod vatandoshimiz hayoti, faoliyati va fojiali taqdiriga bag'ishlangan "Millat fidoyilari" turkum ko'rsatuvlari tayyorlandi va efirga uzatildi. Muzey faoliyatida ilmiy tadqiqot hamda nashr ishlari alohida o'rin egallaydi. O'tgan davr mobaynida muzey ilmiy jamoasi tadqiqotlari natijasida 55 ta monografiya, 35 ta ilmiy maqolalar to'plami, 5 ta o'quv qo'llanma, gazeta va jurnallarda 850 dan ziyod ilmiy, ilmiy-ommabop maqola nashr etilgan. Shuningdek, muzey tomonidan 2009-yildan buyon nashr etib kelinayotgan "Tarixning noma'lum sahifalari" to'plamini alohida qayd etib o'tish joiz. 2022-yilda mazkur to'plamning 10-kitobi nashrdan chiqdi. Prezident farmoyishi asosida esa birgina 2022-yilning o'zida qatag'on qurbonlari hamda o'sha davr tarixiga bag'ishlangan 10 ga yaqin kitob chop etildi. "Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi. Yo'lko'rsatkich" (o'zbek, rus, ingliz tillarida), "Millatimiz fidoyilari" kitoblari, "O'ttiz yettinchi yil turnalari. 1937-1938-yillardagi katta qirg'in qurbonlariga bag'ishlangan ocherk va

maqolalar” to‘plami, “Jadidchilik fenomeni” monografiyasi, J.Sultonmurodov va M.Sultonmurodova hayoti, faoliyati, ijodiy ishlari, maktublari va xotiralaridan iborat “Chiroq ko‘targan ayol” kitobi, G‘ozi Yunusning hali nashr yuzini ko‘rmagan tanlangan asarlaridan iborat “G‘ozi Yunusning Ko‘z oching, Turon eli” kitobi shular jumlasidandir. Yuqorida qayd etilgan farmoyishga binoan, mustabid sovet tuzumi davrida qatag‘on qilingan va muayyan sabablarga ko‘ra oqlanmay qolgan vatandoshlarimizni oqlash borasida ham muhim ishlar qilindi.

Muzey tomonidan Bosh prokuratura va Oliy sudga yozilgan arizalar natijasida Oliy sud tomonidan 2021-yil 25-avgustda sovet davrida qatag‘on qilingan 115 nafar, 2022-yil 6-yanvarda 105 nafar, 2022-yil 19-dekabrda 173 nafar 2023-yil 19-aprelda 208 nafar, jami 601 nafar shaxs oqlandi. Oqlanganlarning aksariyati Turkistondagi jadidchilik harakati namoyandalari ekani bejiz emas. Binobarin, mustabid sovet davrida aynan ma‘rifatparvar, taraqqiyparvar, ziyoli insonlar qatag‘on qilingan.

Prezidentimizning 2020-yil 8-oktyabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishi ijrosini ta‘minlash maqsadida qatag‘on qurbonlari merosini yanada chuqur o‘rganish, xotirasini abadiylashtirish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika ishchi guruhi tashkil etilgan. Qatag‘on qurbonlarining nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlangach, ularning nomlarini aniqlash borasida izlanishlar ko‘lami kengaytirilib, mas‘ullarga vazirlik va idoralar arxivlaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida aniqlangan, ayrim sabablarga ko‘ra, rehabilitatsiya qilinmagan qatag‘on qurbonlari nomlarini oqlash yuzasidan belgilangan tartibda takliflar kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi rahbariyati tomonidan muzey ilmiy jamoasi, mamlakatimizning taniqli tarixchi olimlaridan iborat ishchi guruh tashkil etilgan. Ishchi guruhning izchil faoliyati, ko‘lamli sa’y-harakati tufayli keyingi yillarda sovet davrida qatag‘on qilingan 616 nafar vatandoshimiz rehabilitatsiya qilinib, oqlandi. Oliy sudga Uchlik Kengashining maxsus yig‘ilish qarorlariga ko‘ra, 1929-1931-yillarda hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari hududlarida “bosmachilik” harakati a‘zolari bo‘la turib, qurolli to‘da tuzishib, sovet hukumatiga qarshi qurolli qo‘zg‘olon yoki aksilinqilobiy harakatlarni amalga oshirganlikda ayblangan O‘zbekiston SSR va Qozog‘iston SSR fuqarolari bo‘lgan 240 nafar shaxsga oid 5 ta jinoyat ishi kelib tushib, ishchi guruh tomonidan o‘rganib chiqildi. Bosh prokuror o‘rinbosari tomonidan yuqorida ko‘rsatilgan jinoyat ishlari yuzasidan Oliy sudning Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay‘atiga apellyasiya protestini berish muddatini tiklash haqidagi iltimosnomalar hamda apellyasiya tartibida protestlar keltirildi.

2023-yil 24-avgust kuni ochiq sud majlislarida ushbu iltimosnomalar va protestlar ko'rib chiqilib, qanoatlantirildi hamda Jinoyat-prosessual kodeksining 83-moddasiga asosan, jami 5 ta jinoyat ishi bo'yicha 240 nafar shaxsga nisbatan Oliy sud Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati apellyasiya instansiyasining oqlov hukmi chiqarildi. Adolat qaror topdi, yillar mobaynida yuzaga chiqmay kelgan haqiqat tantana qildi. Mustaqillik yo'lida fidokorona kurash olib borgan, hatto o'z jonini fido qilgan qatag'on qurbonlarining pok nomlari xalqimiz qalbida mangu yashaydi.

Buyuk kelajak sari intilayotgan ona Vatanimiz — yangi O'zbekistonda esa tarixiy an'analar ro'yobga chiqib, milliy an'analar, qadriyatlar qadr topdi, xalqimizning orzu-armonlari ushaldi. Eng asosiysi, yurtimizda tinchlik va osoyishtalik barobarida, inson xotirasi va qadri shunday yuksak darajada ulug'lanayotgani farzandlarimiz uchun tengsiz saboq va munosib ibratdir. Shu sababdan ham bugungi kunda ta'limga oid ko'plab islohotlar tarxini tiklashga, uni o'rganishga qaratilmoqda. Ma'rifatpravarlarimizga bag'ishlab videoraliklar, video, kino, novella, hikoya, maqola, ilmiy ishlar tanlovlari o'tkazilib kelinmoqda. Eng muhimi, milliylik bilan bir qatorda, tarixiylik to'xtamay OAVlarning eng asosiy ko'rinishlaridan biriga aylandi. Bu yurtimiz rivoji va milliy-madaniy tariximiz istiqboliga sezilarli ijobiy natija berishi, shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rajabov R. Tarix fanining metodologik asoslari. Darslik. – T.: Istiqlol, 2013. –296 b.
2. Tojiyev M., Ziyomuxamedov B., O'rolov M. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanining o'quv mashg'ulotlarini loyihalash. O'quv qo'llanma. – T.: Tafakkur-Bo'stoni, 2012. – 224 b.
3. Azimov M.A. Talabalarda tarixga daxldorlik tuyg'usini shakillantirishning didaktik imkoniyatlari. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti "Yangi O'zbekistonda ijtimoiy fanlar transformatsiyasining Nazariy-metodologik masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari to'plami 2024 yil 15-16 noyabr.
4. Azim o'g'li, A. M. (2023). O'rta Osiyodagi birinchi uyg'onish davri yevropasentirizm va osiyosentirizm kontekstida. Yangi asr innovatsiyalari jurnali , 37 (2), 112-118.
5. Oglu, A. M. A. (2025). Specific Indicators of The Means of Forming a Sense of Relevance to National History. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 6(03), 12-16.
6. Azimov, M. A. O. G. L. (2022). Ko'rfaz mamlakatlarida internet texnologiyasining rivojlanish dinamikasi (siyosiy va iqtisodiy sohalar misolida). Scientific progress, 3(3), 655-659.